XALQ DEPUTATLARI G‘IJDUVON TUMANI KENGASHINING
QARORI

2023 - yil 14 - noyabr VI-109-159-2-34-K/23 G‘ijduvon tuman hokimligi

G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli qaroriga asosan tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ yo‘naltirish bo‘yicha takliflar jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun “E-qaror” elektron tizimiga joylashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman hokimligining G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILDI:

1. Tuman hokimligining G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari miqdori 1-ilovaga muvofiq yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (G‘.Tilloev)ga:

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi talablari asosida tuman mahalliy byudjetining parametrlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari G‘ijduvon tuman Kengashi raisi **Sh.Ashurov**

Xalq deputatlari G‘ijduvon tuman
Kengashining
2023-yil 14-noyabrdagi
VI-109-159-2-34-K/23-son qaroriga
1-ilova

G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi manbalari hisobidan yo‘naltiriladigan mablag‘lar

ming.so‘mda

№	Tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘lar miqdori, ming so‘m hisobida	Mablag‘ ajratilgan tashkilot nomi	Ajratiladigan mablag‘ manba’si
1.	“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga	151000,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
2.	“Yoshlar” jamg‘armasiga	76000,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
3.	“Ayollar” jamg‘armasiga	76000,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
4.	Bollalarni sog‘lomlashtirishga ko‘maklashish jamg‘armasiga, oromgohlarni tayorlash uchun	50000,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
5.	Tashkiliy nazorat guruhi rahbarlarini 250 foiz har oylik ustama to‘lovlariga (oktyabr, noyabr, dekabr oylari uchun)	31060,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
6.	Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash jamg‘armasiga	31000,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
7.	Daraxt va butalarning zararkunandalar hamda kasalliklarga qarshi kurashish tadbirlariga	10000,0	Tuman obodonlashtirish boshqarmasiga	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan

8.	"Zoom" platformasi orqali vidiokonferensiya dasturini o‘rnatish va doimiy ishlashini ta’minlash xizmati uchun	7260,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
9.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi 390-sonli qaroriga asosan ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlarini ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o‘tqazishning yagona elektron "E-qaror” axborot tizimidan foydalanish uchun abonoment to‘lovi uchun	6000,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
10.	Tuman hokimligida ijro intizomi yagona idoralaro tizimi iJro.Gov.uz tizimidan foydalanish uchun abonoment to‘lovi	3238,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
11.	Tuman hokimligi xodimlaring xizmat safari xarajatlari uchun	2339,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
12.	Tuman hokimligiga O‘zbekiston Respublikasi Bayrog‘i sotib olish xarajatlariga	11600,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
13.	Tuman hokimligi, sektorlarga ko‘rsatiladigan internet xizmatlari uchun	2000,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
14.	Tuman hokimligi binosida elektr jihozlari sotib olish xarajatlariga	5003,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
15.	Tuman hokimligi, tuman hokimi yordamchilari, tuman Xalq qabulxonasiga xizmatda foydalanish uchun oq qog'oz, kanselyariya tovarlari sotib olish xarajatlariga	16000,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
16.	Tuman hokimligidagi maxsus xonani qo‘riqlash xizmati xarajatlariga	9500,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan

17.	Tuman obodonlashtirish boshqarmasiga obodonlashtirish bilan bog‘liq xarajatlarga	15000,0	Tuman obodonlash-tirish boshqarmasiga	Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil III-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
	Jami	**503000,0**	**XXX**	**XXX**